

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI, XUSUSAN, YOSHLARNI ISH BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Isroilov Kamoliddin

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand Davlat Universiteti, magistr

isroilovkamoliddin2000@gmail.com

+998992012259

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonda band bo'lmagan aholini, xususan, yoshlarni ish bilan ta'minlash dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurgan. Negaki, O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi va ularni ish bilan band qilmay turib, iqtisodiy o'sishga erishib bo'lmaydi. Ushbu tadqiqot ishi yoshlarni ish bilan ta'minlashdagi muammo va yechimlarni atroflicha muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy soha, taraqqiyot strategiyasi, yoshlar, ishsizlik, iqtisodiy taraqqiyot

Mamlakatimizda aholini, xususan, yoshlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Yoshlar – jamiyatning eng faol va dinamik qatlamlaridan biri bo'lib, ularning ish bilan ta'minlanishi mamlakatning kelajagini belgilaydi. Biroq, yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu muammo nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy-siyosiy istiqbollar nuqtai nazaridan ham jiddiy xavf tug'diradi. Aholining yosh qismi o'zining bilim va ko'nikmalarini ishga joylashtirishda muammolarga duch kelmoqda. Ish beruvchilar tomonidan talab qilinadigan malakalar va tajriba ko'pincha yoshlarning imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydi. Bu esa o'z navbatida ishsizlikni kuchaytiradi va yoshlarning ijtimoiy hayotdan chetlatilishiga olib keladi. Yoshlarimizga zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o'ylashimiz lozim. [1. 97]

Yoshlar aholining o'ziga xos ijtimoiy-demografik guruhi bo'lib, u yuqori harakatchanlik va jamiyatning demografik takror ishlab chiqarishida alohida rol o'ynashi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, aholining eng zaif qatlamlaridan biri bo'lib, radikal va ekstremistik g'oyalar ta'siriga eng ko'p moyil bo'lgan yoshlardir. Biroq sog'lom turmush tarzi, shaxsning ilmiy-madaniy rivojlanishi haqidagi g'oyalarni targ'ib qilish orqali yosh avlodga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Yoshlar kabi ijtimoiy guruh uchun yosh chegaralarini belgilash masalasi juda ko'p bahs-munozaralarni keltirib chiqaradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, "yoshlik"

tushunchasini aniqlash uchun umumiy qabul qilingan yosh mezonini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yosh hisoblanadi. Aynan shu mezon asosida yoshlar o'rtasida barcha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini aynan shu yosh chegarasidagi yoshlar tashkil etadi.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini yuksaltirishning muhim omili bandlikdir. Aholining bandligini ta'minlash uni takror ishlab chiqarishning zaruriy shartidir. Aholining turmush darajasi, iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoqlari uchun kadrlarni tanlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xarajatlari, bandlik, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash aholi bandligiga bog'liq. Shu bois aholi bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida o'rganish bugungi kunda alohida ahamiyatga ega.[3. 102]

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat bozoridagi ishsizlarning qariyb 90 foizi munosib ish topishda yordamga ehtiyoj sezadi. To'g'ri ish o'rinlari ishchilar uchun qiziqarli va qulay bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan maqbul ishdir. Muvofiq ishga ega bo'lish uchun ishchi kuchi mehnat bozorida yetarlicha raqobatbardosh bo'lishi zarur. Natijada ishlab chiqarishni yoki tashkilotda boshqaruvni rasmiy tashkil etish va modernizatsiya qilish kadrlar yetishmasligiga olib keladi.[4. 3]

Mamlakatda ishsizlik katta iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va ba'zan psixologik xarajatlardan bog'liq. O'zbekiston demografik taraqqiyotining yana bir xususiyati qishloq aholisining doimiy o'sib borishidir. Shu bilan birga, mehnat bozorida jami mehnat resurslari tarkibida yoshlar ulushini oshirish tendensiyasi yoshlar mehnatiga talabning oshishi va ishchi kuchi taklifining qisqarishi muammosini keltirib chiqarmoqda.[5. 2]

Bu borada olib borilgan tadqiqotlar quyidagilarni tasdiqlash imkonini beradi: qishloq yoshlari o'rtasidagi ishsizlikning yuqori darajasi ko'p jihatdan ishchi kuchining boshlang'ich kasbiy tayyorgarligi (shu jumladan, kasbga yo'naltirish) tizimining nomukammalligi, uning bandligi darajasining pastligi va samarasizligi, ish beruvchilarni moddiy rag'batlantirishning yo'qligi, qishloq yoshlarining talabchanligi va yoshlarning malakasi yetarli emasligi, mehnat bozori infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi, kelgusida aholi bandligini rivojlantirishning ilmiy asoslangan dasturlari ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, mehnat bozorida yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasini pasaytirishni ta'minlovchi omillardan biri – yangi ish o'rinlari yaratish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularning bilim darajasi va kasbiy malakasini oshirish, mehnatni diversifikatsiya qilishning alohida ahamiyati hisoblanadi.[2. 146]

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 24-mayda qabul qilingan “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati

samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5052-sonli farmonda ishsiz aholini, yoshlarni, avvalambor professional ta'lim muassasasi bitiruvchilarini, shuningdek, aholining boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini ixtisoslashtirilgan ish o'rni yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazish, aholi va ish beruvchilar uchun mehnat organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va hammabopligini oshirish yo'li bilan ishga joylashtirishga ko'maklashish alohida belgilab qo'yilgan. [6. 4]

Shuningdek, O'zbekistonning turli qit'alardagi ko'plab davlatlar va davlat birlashmalari bilan aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya, Yevropa, Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalardagi hamkor davlatlar bilan munosabatlar deyarli barcha sohalarda sezilarli darajada mustahkamlandi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonda yoshlarni ish bilan tam'inlash kundalik masalalardan biriga aylandi. Bu borada O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyalari doirasida kerakli ishlar amalga oshirildi va natijasi o'rganilmoqda. Xususan, yoshlarni band qilish uchun avvalo, ularni kasbga o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Ikkinchidan, aholida tadbirkorlikka bo'lgan ishtiyoq uyg'onmoqda va shu soha bilan shug'ullanuvchi fuqarolarga davlat kerakli shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Uchinchidan, yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida dunyo davlatlari erishgan qator yutuqlardan foydalanmoqdamiz. O'ylaymanki, bu kabi ishlarning barchasi o'z samarasini beradi va Yangi O'zbekiston poydevorini aynan yoshlar barpo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
- 2.Michael T. Brannick, Edvard L, Levine, Frederick P. Morgeson. "Job and Work Analysis". Sage Publications USA, 2007.
- 3.Robert. Mathis, John H. Jackson «Human Resource Management» textbook-USA 2015.
4. Xalq so'zi 2024-yil 2-iyun, №109(8732)
5. Xalq so'zi, 2023 yil 19 oktyabr, №222 (8565)
6. <https://lex.uz/>